

## JADID MA'RIFATPARVARLARI TA'LIM TARBIYAGA QO'SHGAN HISSASI

*Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi*  
**Shokirova Sevara**

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada Jadid ma'rifatparvarlarining hayot yo'li,qilgan ishlari,asarlari haqida va jadidlarning pedagogic qarashlari yoritiladi.Prezidentimiz jadidlar hayot yo'liga ,asarlariga befarq bo'lmasligiz hozirgi zamon bilan bog'lagan holda asarlardan foydalanishimiz kerakligi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar.**Jadid ma'rifatparvarlari,jadidlar g'oyalasi O'zbekiston strategiyasi bilan hamnafas,jadidlar qarashlari,asarlari,ta'lism tarbiya,milliy uyg'onish'diniy va dunyoviy bilimlar.

*Jadidlar g'oyasi Yangi O'zbekiston strategiyasi bilan uyg'un va hamohang.*

**Shavkat Mirziyoyev.**

Milliy o'zlikni shakllantirish uchun o'tmish ,bugun ,kelajak hamma davrlarda ham zamonning ziylilari ,xalqning kelajagi uchun qayg'uradigan fidoylarning diqqat markazida bo'lib kelgan.Ayni damda bu haqiqatni yanada teran anglash yangi rivojlanish bosqichida boy milliy tajribadan samarali foydalanish masalasi davlat darajasida katta ahamiyat qaratilmoqda.

O'zbekiston hududida birinchi renessans pedagogikasi Sharqda pedagogic fikrlar rivojlanishi uchun katta hissa qo'shgan Xorazmiy,Farobi,Feruniy nomlari bilan boshlanadi.Ikkinci Renessans pedagogikasining paydo bo'lishi va taraqqiyoti esa Temuriylar sultanatini bilan bog'liqdir.Bu davrda yashab ijod qilgan Mirzo Ulug'bek ,Alisher Navoiy ,Bobur faoliyati va ilmiy pedagogic qarashlari taxsinga sazovordir. Yurtboshimiz ta'kidlab o'tganlaridek mamlakatimizda "Uchinchi renessans 20-asrda ma'rifatparvar bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi.Nega deganda bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab ,o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish ,millatimizni g'aflat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etganlar.Ular dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'limgay " degan hadisi sharifnin hayotiy e'tiqod deb bildilar.

Jadid pedagogikasi haqida gap ketar ekan,dastlab tarixga nazar soladigan bo'lsak Behbudiy,Munavvarqori ,Fitrat,Abdulla Avloniy kabi bobolarimizni yodga olishimiz lozim .Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning ham "Jadidlar g'oyasi –Yangi O'zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg'on va hamohang.Bu haqda Shavkat Mirziyoyev Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishida aytib o'tdi." Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga ,milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur",-dedi prezident. Bundan ko'rinish turibdiki ,jadid ma'rifatparvarlarining qarashlari asrlar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmasligi kerakligi,

ularning g'oyalari hozirgi zamon bilan ham uyg'unlashgan holda bo'lishi lozim ta'kidlanmoqda.

19-asr boshlarida Buxoroda ma'rifatparvar musulmon ruhoniylari va ziyolilari orasida madrasa va maktablar tizimiga va islom diniga kirib qolgan bid'atlarni isloh qilish fikri paydo bo'ldi.Ana shu tarafdarlarini jadidlar ,yangilik tarafdarlari deb atay boshladи.

Prezidentimiz ham bu borada koplab fikrlarini bildirganlar.“Umuman olganda biz jadidchilik harakati ,ma'rifatparvar bobolarimiz me'rosini chuqur o'rganishimiz kerak .Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak ,bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz.

Jadidlarning biz uchun qilgan ishlari katta ahamiyatga ega ,ularning pedagogik qarashlari hozirgi kun uchun ham ahamiyatli.Jadidlar o'z davrida yoshlarni bilimli qilishga intilishgan,o'g'il bolalar va qiz bolalar teng birgalikda ta'lim oishlari kerak degan g'oyalarni ilgari suradilar.Chunki qiz bolalarga ta'lim esa ko'proq uy-ro'zg'or ishlari o'rgatilishi odatiy holga aylanib qolgan edi.Jadidlarning harakatlari bilan qizlar ham ta'lim olish huquqiga ega bo'lishdi.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ham ajdodlar qoldirgan me'roslar haqida fikrlari bor edi,quyida ko'rib chiqamiz.

Xalq merosining ahamiyati va uni o'rganishga O'zbekiston

Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov alohida ahamiyat berib, shunday degan edi: "Xalqimizning tayanchi ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosning o'zi bir katta xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanishimiz kerak.

Bu yerda biz uchun katta bir xazina ajdodlarimiz qoldirgan noyob asarlar ,qo'llanmalar va shu kabilalar,axir ular bizga tarixdan so'zlaydi.Ularni asrab avaylash har birimizning burchimizdir. Jadidlarning asarlarida ta'lim tarbiyaga alohida uyg'unlashib vatanga,oilaga bo'lган muhabbat tushunchalari ham keng yoritilgan.

Jadidlar o'z faoliyatlarini turli hududlarda olib borishgan,masalan Behbudiy Samarqandda,Saidaziziy Toshkentda va shu kabilar.

“Toshkentdagи jadidlar harakatining faol vakillaridan biri SAIDRASUL SAIDAZIZIY (1866-1933)ning ham ma'rifatparvarlik faoliyati jadid tarbiyashunosligi taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. U o'z muallimlik faoliyatini SHayxantahurdagi 1-o'rus-tuzem mакtabida, so'ngra Tu rkiston o'qituvchilar seminariyasida sart (o'zbek) tilidan dars berishdan boshlagan. Ana shu davrda Gramenitskiy va V.P.Nalivkinlar Saidrasul Saidaziziya «Musulmoncha sinf»da o'zbekcha xat-savod o'rgatish yuzasidan darslik yozishni topshirganlar, 1992 yilning sentyabr oyida «Ustodi avval»ning birinchi nashri 3000 nusxada chiqqan, 2- nashri 1903 yilda bosilgan. Bu darslik 1917 yilgacha 17 marta nashr qilinib, Turkiston o'lkasida yuzlab yangi usuldagи «Usuli savtiya (tovush usuli) maktablari»ning ochilishiga sabab bo'ldi.Uning hayot yo'li bilan qisqacha tanishib chiqdik,uning yozgan darsliklari maktablar uchun manfaatli bo'lган.

Jadid ma'rifatparvarlaridan yana biri Abdulla Avloniydir.Uning “Vatanni sevmoq iymondandir ” degan jumlalari maktablar peshtaxtalaridan joy olgan.Umuman olganda ma'rifatparvarlarimiz vatanni,oilani sevmoq orqali insonga o'zligini tanitishni maqsad qilgab,chunki o'zligini tanigan insonlarda bu barcha sifatlar o'rин oladi

ABDULLA AVLONIY (1878-1934) A.Avloniy mehnatkash xalq farzandlarining kelajagiga butun borlig'i bilan ishongan holda, ularning savodini chiqarish, sinfiy ongini o'stirish maqsadida yangi usuli savtiya maktablari uchun darslik va qo'llanmalar ham yaratdi. Ayniqsa, uning «Muallimi avval» (1911), «Muallimi soniy» (1912), «Turkiy Guliston yoxud axloq» (1913) kabi asarlari alohida ahamiyatga ega. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham Abdulla Avloniyning fikrlari haqida shunday deydi; “Tarbiya biz uchun yo hayot,yo mamot,yo najot –yo halokat,yo saodat-yo falokat masalasidir ”degan so'zleri har bir maktab binosida yozib qo'yilishi shart ..

Ulardan O'rta Osiyo jadidlari otasi Mahmudxo'ja Behbudiy –buyuk ma'rifatparvar ,yozuvchi,pulistist ,dramaturg,jamoat arbobi va jadidchilik harakatining yetakchisi bo'lган.Behbudiy Dunyoqarashida Rossiyadagieng nufuzli bo'lган kadetlar partiyasi a'zolari bilan uchrashuv va ular harakatnomalarining ta'siri ham katta bo'lган.U 1912-13-yillarda Samarqandda “Samarqand gazetasi”,”oyna “jurnaliga asos soladi,o'zbek va fors tillarida 200 dan ortiq maqola asarlar yaratadi.”Savod chiqarish kitobi”,”Bolalar xati”kabi asarlari darslik sifatida qo'llaniladi.Behbudiyning hammamizga mashhur “Padarkush “dramasi juda tarbiya va ta'lim masalasi ochiq bayon etilgan .Ushbu asarni hamma o'qishi kerak deb o'ylayman.Ota qotili yoxud o'qimagan bolaning ahvoli haqida ushbu asar juda katta yoshlar tarbiyasida muhim o'rinn tutadigan nodir asardir.Behbudiyning asarlari hozirgi kungacha adabiyot kitoblarining yuzi bo'lib kelmoqda .Behbudiy yozma nutqni o'stirishday nihoyatda murakkab va ma'suliyatli masalaga jiddiy yondashadi va darsligida o'quvchilar xat yoki maqola yozayotgan vaqtarda nimalarga e'tibor berish zarurligini 18 moddada ko'rsatib beradi.Ularning ba'zilariga nazar solsak;

- Xatni kamso'z,serma'no yozmoq kerak
- Maktubga haqorat,ta'na ,hazil,fisq va gunohga ta'luqli so'zlar aslo yozilmasin.
- G'azab va xafalik va yo nihoyat xursandlik va behushlik vaqtlerda xat yozilmasin,holati mo'tadil darajaga kelganda kelganda yozilmoq joizdur.

Yuqorida Behbudiy tomonidan ko'rsatib o'tilgan talablar hozirda ham muhim ahamiyatga ega.Afsuski ,keying yillarda o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlariga kirish imtixonlari test orqali amalga oshirilishi munosabati bilan o'quvchilarning yozma nutqi nihoyatda pasayib ketdi.Bu bilan testlarga qarshi emasmiz,ammo o'rta ma'lumotga ega bo'lган shaxs har bir masalada o'z fikr mulohazalarini yozma ravishda bayon qila bilishi shart.Bu –madaniyatilik me'zoni.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida yozma nutqqa e'tibor kuchaysa yana yaxshi edi deb o'ylardim,chunki bu savodlilik darajasini ham anglatadi.Hozirda aksariyat yoshlar ijtimoiy tarmoqlardan foydalananaverib imlo xatolar bilan yozish ko'p uchramoqda,axir biz uchun o'z davrida qurbon bo'lган bobokalonlarimiz xurmati ilmni xor qilmasdan ,yaxshi o'qib o'rganib munosib avlod bo'lishimiz kerak,biz uchun nodir asarlar qoldirgan jadid bobolarimizni asarlarini o'qib ,o'rganib ,izlanib biz yoshlar ham yangiliklar yaratib yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shishimiz kerak.

Yurtning ravnaqi yoshlarining bilimlik darajasiga qarab belgilanadi degan so'zlar ham bejiz emas.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :**

- 1.Jadidlar Mahmudxo'ja Behbudiy:Yoshlar Nashriyot Uyi Toshkent 2022
- 2.Jadidlar Abdulla Avloniy:Yoshlar Nashriyot Uyi .Toshkent 2022
- 3.ZiyoNET sayti
- 4.Pedagogika Tarixi darslik 2-qism.Toshkent-2005
- 5.Ozbek pedagogikasi antalogiyasi. 1-jild K.Hoshimov,S.Ochil